O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Жиззах вилояти

130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov ko‘chasi, 1-uy, Tel. +99878 771-70-15, Faks: +99878 771-70-15, E-mail: jizzah_expertiza@mail.ru www.ekspertiza.mc.uz www.mc.uz

Holati: Ijobiy
Direktor: Kulmuradov Yusup Baxriyevich
Sana:16-11-2022 yil

**Yig'ma ekspert xulosasi № 73243**

**Obyekt nomi** «Smeta xujjatlari bo'yicha: Jizzax viloyat Paxtakor tumani ko'p qavatli uy-joylarni kirish yulaklarini mukammal ta'mirlash»

**Buyurtmachi –** Jizzax viloyati Paxtakor tumani hokimligi.
**Bosh loyihachi** - "ASILSHOX LOYIXA" MChJ
**Litsenziya** AL-002064. O'zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirligi 2022.02.04
**Moliyalashtirish manbai** - Davlat mablag'lari.
**Bosh pudratchi** – Tender tanlovi asosida.
**Qurilish turi** Mukammal ta'mirlash (kapremont).
**Murojaat raqami:** № 67818

**1. Loyihalash uchun asos**

1.1. Jizzax viloyati Paxtakor tumani hokimligi tomonidan 2022-yilda tasdiqlangan "Loyiha topshirig'i";

1.2. Jizzax viloyati Paxtakor tumani hokimligi tomonidan 2022-yilda tasdiqlangan "Nuqsonlar dalolatnomasi".

**2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar**

2.1. Tasdiqlangan "Nuqsonlar dalolatnomasi";

2.2. Ishchi chizmalar;

2.3. Smeta xujjatlari.

**3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni**

3.1. "Jizzax viloyat Paxtakor tumani ko'p qavatli uy-joylarni kirish yulaklarini mukammal ta'mirlash" smeta xujjatlariga Jizzax viloyati Paxtakor tumani "Buyuk ipak yo'li" MFY Muqumiy ko'chasi №193, 194, 195, 196, 197, 198, 199 va "Zomin" ko'chasi №83, 76, 77, 78, 79, 80, 81, 82 uylarning kirish yulaklarini mukammal ta'mirlash ishlari kiritilgan.

**4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:**

4.1. "Jizzax viloyat Paxtakor tumani ko'p qavatli uy-joylarni kirish yulaklarini mukammal ta'mirlash" smeta xujjatlarida muhandislik ta'minoti ishlari rejalashtirilmagan.

**5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.**

5.1. "Jizzax viloyat Paxtakor tumani ko'p qavatli uy-joylarni kirish yulaklarini mukammal ta'mirlash" ob'ektida bajarilishi kerak bo'lgan ish turlari va hajmlari buyurtmachi tashkilot Jizzax viloyati Paxtakor tumani hokimligi, Paxtakor tuman Uy-joy komunal xizmat ko'rsatish bo'limi, "Paxtakor Yangilanish" MChJ tomonidan o'rganib chiqilgan va tasdiqlangan;

5.2. Buyurtmachi ob'yekt loyihasini tasdiqlashdan oldin barcha mutasaddi va tegishli tashkilotlar bilan kelishishi lozim.

**6. Ekspertiza natijalari.**

6.1. Smeta xujjatlari ekspertizaga buyurtmachining e'tirozlarisiz taqdim qilindi.

6.2. Ob'ektning qurilish narxi "Qurilish iqtisodiyoti instituti" MChJ tomonidan ishlab chiqilayotgan joriy narxdagi kataloglar, birja, amaldagi (haqiqiy, bozor sharoitlariga ko'ra) narxlar va joriy vaqtda faoliyat olib borayotgan internetdagi bozor narxlarni xisobga olgan holda ishlab chiqilgan va ekspertizaga taqdim qilingan.

Smeta hujjatlarini ko'rib chiqish jarayonida quyidagi kamchiliklar aniqlandi:

1. Nuqson dalolatnomasini kelgusida muammolar yuzaga kelmasligini inobatga olib bosh loyihachi tomonidan xam tasdiqlash tavsiya qilinadi.
2. Taqdim qilingan smeta xujjatlarida smeta tuzuvchi va ijrochi shaxslarining ism familyasi koʻrsatilsin.
3. Nuqson dalolatnomasi tuzilgan sanasiga aniqlik kiritilsin.

Buyurtmachi tomonidan smeta qiymati buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz va 15% QQS bilan birga – **1 820 325,506** ming so'm taqdim etilgan. Smeta hujjatlarini o'rganish jarayonida ba'zi qurilish materiallari narxi pasaytirilishi, ish turlarining amaldagi qurilish me'yorlari va qoidalari asosida hisoblanishi xisobiga – **24 727,885** ming so'mga kamaytirildi.

6.3. Ekspertiza natijalarini xisobga olgan holda "**Jizzax viloyat Paxtakor tumani ko'p qavatli uy-joylarni kirish yulaklarini mukammal ta'mirlash**" ob'ekti bo'yicha tayyorlangan smeta hujjatlarini kelgusida kelishish hamda tasdiqlash uchun 15 % QQS bilan xisoblaganda umumiy miqdorda – **1 795 597,621** ming so'm tavsiya etiladi.

Shu jumladan:

– qurilish montaj ishlari (QMI) – **1 556 408,728** ming so'mni;

– qurilish vaqtida qurilish obektini sug'urtalashga sarflangan xarajatlar(0,32%) – **4 980,508** ming so'mni;

– qo'shimcha qiymat solig'i 15% – **234 208,385** ming so'mni tashkil etgan.

– umumlashtirilagan smeta hisobida ishchi-quruvchilar miqdori **4 029,07** odam/soat tashkil etilgan.

– buyurtmachining boshqa xarajatlari narxi smetaga kiritilmaganligi sababli ko'rsatilmadi.

Ishchi quruvchilarning o'rtacha bir soatlik ish xaqi "Qurilish iqtisodiyoti instituti" MChJ chiqarayotgan 2022–yil III chorak(kvartal) katalog asosida **14 580,59 x 1,12 = 16 330,2608** so'm ijtimoiy sug'urtaga ajratma 12 % qabul qilingan. (Ijtimoiy sug'urtaga ajratma foizi pudratchining haqiqiy harajatlari bo'yicha buxgalteriya hujjatlari asosida amalga oshiriladi).

**Ta'kidlash joizki:**

a). Smeta hujjatlarida nazarda tutilgan asosiy qurilish materiallari va uskuna (jixoz) larni xarid qilish tartibi belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq amalga oshirilishi va asoslovchi xujjatlarga tayanilishi lozim. "Narxlar kelishuvi" to'g'risidagi bayonnoma ko'rsatilgan narxlarning haqqoniyli

buyurtmachi va loyiha tashkiloti, hamda o'zaro hisob-kitob qilishda ShNQ 4.01.16-09 qoidalariga amal qilgan holda eng maqbul narxlar qabul qilinishi nazorati buyurtmachi tashkilot zimmasida qoladi.

b). Buyurtmachiga loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin quyidagilarni qayta ko'rib chiqish tavsiya etiladi;

- pudratchi boshqa xarajatlarining aniq sarfi;

- "Qurilishning bahosini shartnomaviy joriy narxlarda aniqlash qoidalari" ShNK 4.01.16-09 asosida qurilish materiallari (buyumlar, konstruksiyalar) va uskunalarning ishlab chiqaruvchi zavodlarning ulgurji narxlarini o'z ichiga olgan hududiy bozorda haqiqatda shakllangan narxlari, shuningdek bevosita ishlab chiqaruvchilardan (yetkazib beruvchi), qurilish materiallari birja va yarmarkalarining byulletenlari, qurilish materiallari va uskunalari yetkazib beruvchi tashkilotlarning narxlarining eng maqbullaridan olinishini;

- ish haqi xarajatlarining pudratchi tashkilotning o'tgan 12 oydagi o'rtacha oylik ish haqi darajasidan kelib chiqqan holda bir odam/soat ish haqidan olinganligi.

6.4. Yakuniy harajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.

6.5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003–yildagi №261 qarori bilan tasdiqlangan "Qurilish ob'ektlari narxini joriy shartnoma narxlarida aniqlash tartibi to'g'risida vaqtinchalik qoidalar"ga va ShNK 4.01.16.09 ga binoan qurilishning narxi tavsiyaviydir. Tavsiya etilgan bahoni qabul qilish qarorini buyurtmachi va pudratchi birgalikda qabul qiladilar (ShNQ4.01.16-09, 6-bob. 6.4-bandi).

6.6. O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi 4-bob 23,24,25-moddalari xamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 17.09.2021 yildagi №579-sonli qarorining 1-ilova 3-bob 29-bandiga asosan "Ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik xujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning xaqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlari bo'yicha buyurtmachi xamda loyiha tashkiloti javobgardir".

6.7. Tasdiqlangan nuqson dalolatnomasi xaqqoniyligi va ishonchliligi uchun javobgarlik buyurtmachiga va loyihachi tashkilot zimmasiga yuklatiladi. Ushbu xujjatlarni byurtmachiga qayta ko'rib chiqish tavsiya qilinadi.

## 7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalari va takliflarini inobatga olgan holda "**Jizzax viloyat Paxtakor tumani ko'p qavatli uy-joylarni kirish yulaklarini mukammal ta'mirlash**" smeta xujjatlari kelgusida ko'rib chiqish va tasdiqlashga tavsiya etiladi.

**Bosh mutaxassis:** DJURAEV ANVAR LAPASOVICH

**Ishtirokchi ekspertlar:**

AXMEDOV ABDULLAJON AKMAL O‘G‘LI